ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 2, ISSUE 2 2024

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

2 JILD, 2 SON

# ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

ТОМ 2, НОМЕР 2

# JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 2, ISSUE 2

ТОШКЕНТ-2024

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI
ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»
№2 (2024) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2024-2

**Бош муҳаррир: | Главный редактор: Chief Editor:**

**Urazbayeva Dilbar Abdullayevna**
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

**Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель главного редактора: | Deputy Chief Editor:**

**Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich**
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Ma'mun Universiteti NTM

## TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

**FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)**
**Axmedov Oybek Saporboyevich**
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
**O'rozboyev Abdulla Durdibayevich**
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM
**Kalandarov Oybek Ruzimbayevich**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
**Yakubov Muzaffar Kamildjanovich**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
**Galiyeva Margarita Rafaelovna**
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti
**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**
Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti
**Yakubova Matluba Tajibayevna**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
**Samandarova Lola Sultanovna**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

**FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)**
**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**
Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti
**Ruzmetov Surojbek Allaberganovich**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

**FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)**
**Yakubova Matluba Tajibayevna**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

**FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)**
**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

**TARIX FANLARI**
**Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev**
Tarix fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi
**Ashirov Adhamjon Azimbayevich**
Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi Tarix instituti.
**Goncharov Yuriy Mixaylovich**
Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya
**Shaydurov Vladimir Nikolayevich**
Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya
**Abdullayev Utkir Ismoilovich**
Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti
**Matkarimova Sadoqat Maqsudovna**
Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM
**Abdullayev Timur Pulatovich**
Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM
**Abdalov Umidbek Matniyazovich**
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM
**Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna**
Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti
**Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich**
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

**PSIXOLOGIYA FANLARI**
**Shoumarov G'ayrat Baxromovich**
Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi
**Kryukova Tatyana Leonidovna**
Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya
**Karpinskiy Konstantin Viktorovich**
Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

**IQTISODIYOT FANLARI**
**Ruzmetov Baxtiyar**
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM
**Sherov Alisher Bakberganovich**
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor
Ma'mun Universiteti NTM
**Voronsova Yuliya Vladimirovna**
Iqtisodiyot fanlari nomzodi
Moskva davlat boshqaruvi universiteti
**Jabborov Umarbek Rustambekovich**
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
**Cho'ponov San'at Otanazarovich**
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
**Niyazmetov Islambek Masharipovich**
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

**PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI**
**Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli**
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM
**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
**Adilov Zafar Yunusovich**
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

**Slepko Yuriy Nikolayevich**
Psixologiya fanlari doktori, professor
Yaroslav davlat pedagogika universiteti
**Xazova Svetlana Abduraxmanovna**
Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya
**Kalandarova Madina Baxadirovna**
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
**Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**
Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun
Universiteti NTM

**TIBBIYOT FANLARI**
**Yuldashev Baxrom Sobirjanevich**
Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM
**Abdullayev Ravshanbek Babajonovich**
Tibbiyot fanlari doktori, professor
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
**Esamuratov Aybek Ibragimovich**
Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
**Samandarova Barno Sultonovna**
Biologiya fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
**Tajiyeva Zebo Baxodirovna**
Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
**Nazarova Maloxat Berdiboyevna**
Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
**Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna**
Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

**ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI**
**Sultanov Samandar Maxmud o`g`li**
Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)
Ma'mun Universiteti NTM

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: @devdasdesign

**Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz**
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

## FILOLOGIYA

**1. Ашимханова Светлана Ашимхановна, Абдуллаева Айнур Аскаровна**
РОЛЬ СРАВНЕНИЙ КАК ОБРАЗНОЕ СРЕДСТВО В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ……………………………………………………………………………..8

**2. Murodov G'ayrat Nekovich**
EPOS VA ROMAN: ADABIY-BADIIY BOG'LANISHLAR……………………………………13

**3. Чупонов Отаназар Отажонович**
РУКОПИСНЫЕ КНИГИ КАК ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ ИСТОЧНИК…………………………20

**4. Худайбергенова Умида Комилджановна**
СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ЭРГОНОМОВ……………………………………..26

**5. Pardayeva Sojida Ahmatovna**
WHAT IS PRAGMALINGUISTICS IN LINGUISTICS?.........................................................34

**6. Зеленина Тамара Ивановна, Тойкина Ольга Владимировна**
МНОГОЯЗЫЧИЕ И МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РАЗНОСТРУКТУРНЫХ ЯЗЫКОВ……………………………………………………………………………………39

**7. Tursunbaeva Gulruh Mukhametovna**
SELECTED FEATURES OF FILM TRANSLATION AS THE KEY ISSUE IN ACQUIRING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE…………………………………………………...45

**8. Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna**
INSON TANA A'ZOLARI HAQIDAGI TOPISHMOQLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI……………………………………………………………………………51

**9. Маркин Владимир Васильевич, Маркина Полина Владимировна**
СОЦИОКУЛЬТУРНАЯ АДАПТАЦИЯ: СУЩНОСТЬ И ФУНКЦИИ………………………...58

**10. Ашимханова Светлана Ашимхановна, Абдуллаева Айнур Аскаровна**
РОЛЬ МЕТАФОР КАК ОБРАЗНОЕ СРЕДСТВО В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ……………………………………………………………………………64

**11. Абдиева Камола Аслиддин кизи**
ОСНОВНЫЕ ЧЕРТЫ СОВРЕМЕННОГО ЭЛЕКТРОННОГО КОРПУСА……………………70

## IQTISODIYOT

**1. Xaydarov Ilxom To'xtayevich**
SUG'URTA SOHASIGA OID TERMINLAR TAHLILI…………………………………………76

**2. Кипкеева Асият Магомедовна**
ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА РОСТ И РАЗВИТИЕ СТРАНЫ………………..81

**3. Annazarova Barno Rustamovna**
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA AHOLINI RO'YHATGA OLISH JARAYONLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH HOLATINING TAHLILI…………………86

**PEDAGOGIKA – PSIXOLOGIYA**


**1. Ибраимов Холбой Ибрагимович**
ЗАМОНАВИЙ ЖАМИЯТДА ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМ МУАММОЛАРИ ВА РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ……………………………………………………………92

**2. Urazbaeva Dilbar Abdullaevna**
SUT BEZI SARATONI TASHXISLI BEMORLARDA KASALLIKKA MUNOSABAT TIPI NAMOYON BO‘LISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI………………………………..97

**3. Kalandarova Madina Baxadirovna**
PERINATAL PSIXOLOGIYADA PSIXODIAGNOSTIK METODIKALARNI QO’LLASH….105

**4. Хазова Светлана Абдурахмановна, Рукавишникова Дина Рафаиловна**
СВЯЗЬ ОТНОШЕНИЯ К БОЛЕЗНИ И ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ ЖЕНЩИН, ПЕРЕНЕСШИХ ХИРУРГИЧЕСКОЕ ВМЕШАТЕЛЬСТВО ПО ПОВОДУ РАКА МОЛОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ…………………………………………………………………….111

**5. Jumaniyazova Ilmira Kamiljanovna**
INSULT KASALLIGINING TIBBIY - PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING NAZARIY VA AMALIY TAHLILI…………………………………………………………………..117

**6. Sadikova Umida Botirovna**
QANDLI DIABET KASALLIGI TASHXISI QO‘YILGAN BEMORLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI…………………………………………………………….123

**7. Парфёнова Татьяна Вячеславовна**
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ И ЗАКОНОМЕРНОСТИ ЛИЧНОСТНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ КОСВЕННЫХ СВИДЕТЕЛЕЙ ЭКСТРЕМАЛЬНОГО МАКРОСОЦИАЛЬНОГО СОБЫТИЯ…………………………………………………….128

**8. Kasimova Xulkar Atabayevna**
NOGIRONLIGI BO‘LGAN TALABALARNING KOPING STRATEGIYALARI BO‘YICHA OLINGAN NATIJALARNING PSIXOLOGIK TAVSIFI…………………………132

**9. Силина Елена Алексеевна, Крюкова Татьяна Леонидовна**
СОЦИАЛЬНЫЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ О НАСИЛИИ В ОТНОШЕНИЯХ ПАРТНЕРОВ……138

**10. Jumaniyozova Nasiba Ramatillayevna**
AUTIST BOLALAR BILAN ISHLOVCHI MUTAXASSISLARDA PSIXOLOGIK STRESSNING NAMOYON BO’LISHI…………………………………………………………..144

**11. Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna, Fozilova Sabohat Nodir qizi**
PEDAGOGLARDA KASBIY ZO'RIQISHNI NAMOYON BO’LISHI VA UNI KORREKSIYASI…………………………………………………………………………….149

**12. Qurbonova Shaxloxon Bahodirovna**
GENDER IJTIMOIYLASHUV TUSHUNCHASI VA DIFFERENSIAL FARQLARNING O‘ZIGA XOSLIGI……………………………………………………………………...155

## TIBBIYOT

**1. Abdullayev Ravshanbek Babajonovich, Bakhtiyarova Aziza Maqsudbekovna**
CLINICAL CHARACTERISTICS OF PEPTIC ULCER DISEASE IN ELDERLY RESIDENTS OF THE KHOREZM REGION…………………………………………………………………...161

**2. Назарова Малохат Бердибаевна, Адилбеква Дилором Бахтиёровна**
ВЛИЯНИЕ ХРОНИЧЕСКОГО ТОКСИЧЕСКОГО ГЕПАТИТА МАТЕРИ НА СОСТОЯНИЕ ПЕЧЕНИ ПОТОМСТВА………………………………………………………………………166

## TARIX

**1. Mustafa Demirci**
THE GREAT SCHOLAR OF THE MAMUNİDS PALACE: ʿABU SAHL ISĀ B. YAḤYĀ AL MASİHİ, THE TEACHER OF IBN SİNA AND BİRUNİ, AND HİS UNDİSCOVERED SCİENTİFİC HERİTAGE……………………………………………………………………………172

**2. Нодира Кадамовна Нуруллаева**
ГОСУДАРСТВО МАЪМУНИДОВ: МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И РЕЛИГИОЗНАЯ ТОЛЕРАНТНОСТЬ………………………………………………………………..184

**3. Лухманова Зарина Талибовна**
ЭФФЕКТИВНОСТЬ МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ: МЕТОДИКА РАСЧЕТА…………….191

**4. Ashirov Adhamjon Azimbayevich, Karimov Umrbek Davronbekovch**
O‘ZBEK XALQINING EKIN-TIKINCHILIK MAROSIMLARIDA DINIY VA MILLIY QADRIYATLAR SIMBIOZI…………………………………………………………………..209

**5. Matkarimova Sadokat Maksudovna**
XX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARIDA TAOMLANISH MADANIYATI TARAQQIYOTIDAGI O’ZGARISHLAR…………………………………………………………..215

**6. Masharipova Gularam Kamilovna**
ABU RAYHON BERUNIY VA ABU ALI IBN SINO ASARLARINING XORIJDAFI NUSXALARI HAQIDA………………………………………………………………………..220

**7. Ғайбулла Бобоёров Боллиевич, Шохрухмирзо Исмоилов Закиржон ўғли**
АБУ РАЙҲОН БЕРУНИЙНИНГ “ОСОР УЛ-БОҚИЙА” АСАРИДАГИ ЎҒУЗ ТУРКЛАРИ БОШҚАРУВЧИЛАРИНИНГ УНВОНИ “ХОНУВТА”МИ ЁКИ “ЖАБҒУЙА”?....................231

**8. Abdalov Umidbek Matniyazovich, Pulatov Muhriddin**
XORAZMSHOHLAR DAVLATIDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY MUNOSABATLARGA OID BA’ZI MASALALAR…………………………………………………………………………..236

**9. Egamberdieva Nigora Azadovna**
O‘ZBEKISTONDA DAVLATCHILIK SHAKLLANISHINING OMILLARI VA TARIXIY ILDIZLARI……………………………………………………………………………………..242

**10. Davlatova Saodat Tilovberdiyevna, Matkarimova Nazokat Maksudovna**
МАЪМУНИЙ ХОРАЗМШОҲЛАР ДАВЛАТИНИНГ “ОЛТИН ДАВРИ” ВА МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ ОЛИМЛАРИНИНГ МУСИҚА ИЛМИ СОҲАСИДАГИ ФАОЛИЯТИ…………………………………………………………...249

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI
ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»
JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»
ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz

**Sadikova Umida Botirovna,**
Ma'mun universiteti "Psixologiya va tibbiyot"
kafedrasi dotsenti, PhD. Xiva, O'zbekiston
E-mail.: temperament88@mail.ru

# QANDLI DIABET KASALLIGI TASHXISI QO'YILGAN BEMORLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.12515620

**ANNOTATSIYA**

Maqolada qandli diabet tashxisi qo'yilgan bemorlarning psixologik jihatdan o'rganish dolzarbligi, uni o'rganishdagi tadqiqotlarning ahamyati, tibbiyot sohasiga psixologik aralashuv, xorijiy mamlakatlarda qandli diabet kasalligidagi bemorlarni psixologik tadbiq etishga doir bir qancha amalga oshirilgan ishlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Qandli diabet, kasallikning psixologik jihatlari, insulin, metabolizmi buzilishi, emotsional holat, kechinma.

---

**Sadikova Umida Botirovna,**
PhD., Associate professor of "Psychology and medicine"
department of Mamun University, Khiva, Uzbekistan
E-mail.: temperament88@mail.ru

# PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PATIENTS DIAGNOSED WITH DIABETES

**ABSTRACT**

The article analyzes the relevance of the psychological study of diabetes, the importance of research in its study, psychological intervention in medicine, a number of studies on the psychological application of patients with diabetes in foreign countries.

**Keywords:** Diabetes mellitus, psychological aspects of the disease, insulin, metabolic disorders, emotional state, experience.

---

**Садикова Умида Ботировна,**
Доцент кафедры «Психологии и медицины»
университета Мамун, PhD. Хива, Узбекистан
E-mail.: temperament88@mail.ru

# ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПАЦИЕНТОВ С ДИАГНОЗОМ САХАРНЫЙ ДИАБЕТ

**АННОТАЦИЯ**

В статье анализируется актуальность психологического изучения сахарного диабета, значение исследований по его изучению, психологическое вмешательство в медицине, ряд исследований по психологическому изучению больных сахарным диабетом в зарубежных странах.

**Ключевые слова:** Сахарный диабет, психологические аспекты болезни, инсулин, метаболические нарушения, эмоциональное состояние, переживания.

---

**KIRISH VA DOLZARBLIGI.**

Bugungi kunda Yer sayyorasining aholi soni ko'rsatkichi bilan qaraganda 20 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan deyarli 7 % aholisi aziyat chekadigan qandli diabet kasalligi bevaqt o'limga sabab bo'lishi bilan yurak-qon tomir va onkologik kasalliklardan keyin uchinchi o'rinda turadi [14].

Tibbiyot sohasida faoliyat ko'rsatuvchi barcha yo'nalish mutaxassislari o'z ish faoliyatida qandli diabet bilan ishlashga to'g'ri keladi.

Butunjahonda Covid pandemiyasidan so'ng yurtimizda qandli diabet tashxisi qo'yilgan bemorlar yuqori ko'rsatkichni qayd qilib borilmoqda. Buning natijasida
aholini endokrin kasalliklardan davolash borasida barcha hududlarda kasallikni oldini olish uchun psixofiziologik va psixologik profilaktik ishlarni amalga oshirish davr talabi hisoblanadi.

Pandimiyadan keyin insonlardan gigenik qoidalarga amal qilish qat'iy talab qilinadi. Bir martalik idishlardan foydalanish taklif etildi.

Har narsa me'yorida bo'lgani yaxshi, ortiqcha ozodalik esa ba'zi kasalliklar kelib chiqishiga sababchi bo'lishi mumkin ekan. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, oxirgi paytlarda qandli diabet kasalligi bilan kasallangan bolalarning soni keskin ravishda ko'paydi. Uzoq izlanishlardan keyin olimlar shunday xulosaga keldilar: barchasiga ota-onalarning haddan tashqari tozalikka intilishlari sabab bo'lgan. Tadqiqotlardan ma'lumki, atrof-muhitdagi ba'zi bakteriya va viruslar organizmning chidamligiga xizmat qiladi. Ya'ni ularga qarshi immunitet bolalikdan boshlab ishlab chiqariladi. Yuqori gigenik qoidalari sababli ulardan xalos bo'lishimiz esa o'z navbatida qandli diabet kasalligini olib kelishi mumkin[9].

Qandli diabet bizning davrimizning eng jiddiy muammolaridan biri bo'lib, uning ko'lami tobora ortib bormoqda va har qanday yoshdagi va mamlakatlardagi odamlarning manfaatlariga o'z ta'sirni ko'rsatmoqda. Hozirgi vaqtda sayyoramizda 150 milliondan ortiq diabetga chalingan bemorlar bor va ularning soni har 15 yilda kamida ikki baravar ko'payishi pragnoz qilinmoqda. Qandli diabet zamonaviy tibbiyotning eng jiddiy muammolaridan biri hisoblanib, uglevod almashinuvining buzilishi va yurak-qon tomir patologiyalarining rivojlanishining oldini olishning asosiy yo'nalishlaridan biri kasallikning dastlabki bosqichlaridan boshlab glyukoza darajasini juda qattiq nazorat qilish taktikasidir. Bundan tashqari, glikemiyani normallashtirish qandli diabetda yurak-qon tomir asoratlarining asosiy omillaridan biri bo'lgan trombogenik potentsialni kamaytirishga yordam beradi. Qandli diabet kasalligiga chalingan bemorlarning ko'pchiligida noto'g'ri ovqatlanish asosiy omil hisoblansada, aksincha o'rganishlarning ko'pchiligi qattiq ruhiy stress natijasida vujudga kelishini ko'rsatmoqda.

**METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI.**

**Qandli diabet** (lot. *diabetes mellitus*, «saxar kasalligi») — glyukozaning o'zlashtirilishi buzilishi bilan bog'liq bo'lgan va insulin gormonining nisbiy yoki mutlaq yetishmovchilgi yuzaga keladigan endokrin kasalliklar guruhi hisoblanib, buning oqibatida giperglikemiya — qonda qand miqdorining turg'un oshishi kuzatiladi. Kasallik surunkali kechishi, shuningdek uglevod, yog', oqsil, mineral va suv-tuz metabolizmi buzilishi bilan xarakterlanadi [12].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1980-yilda dunyo bo'ylab 108 million odam diabetga chalingan bo'lsa, 2014-yilga kelib bu raqam 422 millionni ko'rsatgan [6] . 2021 yilda Xalqaro diabet federatsiyasi ma'lumotiga ko'ra, 537 millionga yetgan [13], 2045 yilga kelib dunyo bo'ylab diabetga chalinish 700 millionga yetishi prognoz qilinmoqda [7].

2021-yilgi statistikada dunyoda diabet qayd qilinishi boʻyicha Xitoy birinchi oʻrinda turadi, ya'ni diabet bilan kasallanganlar 116 million kishini tashkil qiladi. Xitoydan keyin Hindiston (diabet kasalligi bilan kasallangan 77 million kishi), keyin esa AQSh 31 million kishini tashkil qiladi [8].

Mamlakatimizda ham qandli diabet bilan kasallangan bemorlar soni ortishi kutilmoqda. Mutaxassislarning qayd etishicha, 2018-yil olib borilgan tadqiqotlar va Namanganda oʻtkazilgan oʻrganishlar natijasida mamlakatimizda qandli diabet bilan kasallangan bemorlar soni (230 ming) kelgusida 4-5-martaga oshgani qayd etilgan. 2021-yil Oʻzbekistonda qandli diabet bilan kasallanganlar soni 245 mingdan koʻproqni tashkil etib, ulardan 2, 3 mingdan ortigʻi – bolalarni tashkil etmoqda [10].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022 yil 26-yanvardagi «Endokrinologiya xizmatini takomillashtirish va koʻlamini kengaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi 102-sonli qarorida 2022-2024 yillarda Respublika aholisiga endokrinologiya yordami koʻrsatishni rivojlantirish dasturi qabul qilingan boʻlib, unda belgilangan rejalarga koʻra, respublikaning 40 yoshdan oshgan aholisida yiliga bir marta qandli diabet kasalligiga skrining oʻtkazilishi va sohada koʻplab islohotlar oʻtkazilishi qayd qilingan. Aynan mutaxassislar Kovid pandemiyasidan soʻng ushbu dardga chalinganlar soni ortgani, umuman diabet kovid asoratlaridan biri ekanligini qayd etishmoqda [11].

Jamiyatda yashovchi jamiki kishilarning oʻz salomatligiga e'tibor qaratmasligi natijasida, kamharakatli va stressli jarayonlarning koʻp takrorlanishida qarama - qarshi holat hisoblangan kasallik-klinik koʻrinishlarda namoyon boʻladigan patologik jarayon boʻlishi bilan birga psixologik nuqtai nazardan ojizlik tuygʻusi, toʻkin hayotga qayta olmayman degan qoʻrquv, har bir kishini sogʻlom muhitdan ayiruvchi chegara, hasad, yurakdagi ogʻriq, insoniy mehrga tashnalikdir[1]. Shu nuqtai nazardan barcha kasallik, ayniqsa surunkali kechuvchi kasalliklarda ruhiy qoʻllab-quvvatlash, bemor shaxsiga mehr berish, kasalikka nisbatan qoʻrquvini kamaytirib, davolanishga motivatsiyasini oshirish, kasallik bilan ogʻrigan bemorning e'tiborini sublimatsiya qilish, kasallikka qarshi kurashda bemor shaxsi va uning atrofidagilari hayotini yaxshilashga xizmat qiladi [2].

## TADQIQOT NATIJALARI.

Bunday jarayonlarda xorij tadqiqotlarida koʻplab kasalliklarning psixologik jihatdan oʻrganilganligini koʻrishimiz mumkin. Bular orasida qandli diabet bilan ogʻrigan bemorlarni psixologik yondashuvlariga doir bir qancha amalga oshirilgan tadqiqotlar alohida oʻrin egallaydi. Jumladan rus olimi E.V.Surkovaning "Qandli diabetning klinik, psixologik va psixopatologik jihatlari" mavzusidagi tadqiqot ishi qandli diabetning klinik xususiyatlari va bemorlarning psixologik xususiyatlari, qandli diabet va depressiya, qandli diabet bilan ogʻrigan bemorlarga diagnostika va terapevtik yordam koʻrsatish muammolariga qaratilgan. Olim tadqiqot ishida birinchi marta klinik, psixologik va psixopatologik xususiyatlarning oʻzaro bogʻliqligi qandli diabetning turli klinik toifalarini qamrab olgan bemorlarning keng namunasida oʻrgangan. Shuningdek, koʻp jihatdan glyukemik nazorat darajasini belgilaydigan xususiyatlar toʻplami (temperament va xarakterning oʻziga xos xususiyatlari, kasallikdagi nazorat oʻchogʻi, oʻrganishga munosabat) aniqlangan. Tadqiqotda deyarli 20% hollarda qandli diabet ruhiy tushkunlik (siklotimik, distimik va reaktiv) bilan birga kelishi, ular kasallikning asosiy klinik xususiyatlari bilan psixosomatik bogʻliqlikni koʻrsatmaydi, uning turi bundan mustasno (siklotimiya 1-toifa qandli diabet bilan ogʻrigan bemorlarga xosdir) distimiya - 2-toifa qandli diabet bilan ogʻrigan bemorlar uchun) ekanligi oʻrganilgan [4].

K.B. Vovnenko "Boshlangʻich maktab yoshidagi nogiron bolalarning hissiy va shaxsiy sohasining xususiyatlari: 1-toifa diabet misolida" mavzusidagi tadqiqot ishida 1-toifa qandli diabet bilan ogʻrigan kichik maktab yoshidagi bolalarda kasallikka boʻlgan munosabat turlarining psixologik xususiyatlari haqida toʻxtalib oʻtgan. Tadqiqotda ilk marotaba 1-toifa qandli diabet bilan ogʻrigan boshlangʻich maktab yoshidagi bolalarning sogʻlom tengdoshlari bilan solishtirganda hissiy va shaxsiy sohasining oʻziga xos xususiyatlari yuqori tashvish, tajovuzkorlik, ziddiyat, sotsializatsiya buzilishi, muloqot qilishda qiyinchiliklar, izolyatsiyada namoyon boʻlishi hamda,

hissiy va shaxsiy soha o‘rganilgan. Natijada izolyatsiya, tashvish, psixologik stressning boshqa ichki belgilarida namoyon bo‘lgan ichki muammolarni aniqlangan, tajovuzkorlik, huquqbuzarlik va boshqalar bilan ifodalangan ‘motsionalholatlar tadqiq qilingan [5].

Milliy muhitimizda mamlakatimiz psixologlaridan G‘.Shoumarov, E.G‘oziyev, B.Qodirov, V.Karimova, Z.Nishanova, Z.Ibadullayev, Sh.Baratovlar salomatlik psixologiyasi, psixofiziologiya, psixogigena, tibbiy psixologiya, turli sohalarda psixologik xizmat masalalari bo‘yicha, shuningdek, M.Karamyan, D.Ilxamova, D.Urazbayevalar turli xil kasalliklarda bemor psixikasini o‘rganish holatlarini tadqiq qilganlar. Ammo qandli diabet kasalligi bilan og‘rigan bemorlar psixologiyasini o‘rganish bo‘yicha psixologik tadqiqotlarda izlanishlar amalga oshirilmagan. Mamlakatimizda olib borilayotgan tibbiyot sohasidagi psixologik tadqiqotlarning ahamiyati bemorga psixologik yondashuv bilan davolash samaradorligini va hayot sifatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Shifokor va bemor munosabatlarida psixologik xususiyatlarning ahamiyati shundaki **s**hifokor va bemor o‘rtasida o‘zaro tushunishni o‘rnatish uchun eng muhim shartlardan biri bu qo‘llab quvvatlash hissidir. Bemor shifokorga ishonch bildirishi bu uning muolajada faol bo‘lishiga sababdir [3]. Empatiya bu munosobatda hamkorlini yo‘lga qo‘yishning kalitidir. Shifokor o‘zini bemorning o‘rniga qo‘ya olishi va bemor ko‘zi bilan dunyoga qaray olishi muhimdir. O‘z navbatida bemor ham shifokor “farishta” emas, u ham mutaxasis soha vakili ekanini unutmasligi kerak.

## XULOSALAR.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bugungi kunda organizmda sodir bo‘layotgan fiziologik jarayonlarni o‘rganishning o‘zi yetarli emas, shaxs psixikasini, xarakterini, temperamenti, emotsiyasini, dunyoqarashini aniq tahlil qilish hamda, hayotiy tajriba va munosabatlar ko‘p jihatdan nafaqat asab va ruhiy jarayonlarning namoyon bo‘lishi va rivojlanishini belgilaydi, shu bilan birga somatik va ichki kasalliklar, salomatlikdagi o‘zgarishlarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

1. Qandli diabet tashxisi qo‘yilgan bemorlar bilan ishlaydigan mutaxassislar shaxsning individual xususiyatlarini inobatga olishi zarur.

2. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, qandli diabet tashxisi qo‘yilgan bemorlar bilan ishlovchi mutaxassislar va psixologlardagi kasbiy faoliyatga tayyorligini aniqlash va diagnostika qilish imkoniyatlarini ko’rib chiqish va shu orqali korreksion dastur ishlab chiqish muhimligi qayd etildi.

3. Qandli diabet tashxisi qo‘yilgan bemorlarning individual xususiyatlarini anglash, ular bilan bo’ladigan muloqot va munosabat tizimiga ta’sir qilishni inobatga olish, shuningdek, korreksion tadbirlar rejasini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiq bo’lar edi.

Demak, bugungi kunda tibbiy psixologiyaning oldida turgan asosiy vazifalardan biri ham turli kasalliklarga chalingan, shu qatorda qandli diabet kasalligi tashxisi qo‘yilgan bemor psixikasini o‘rganish va ularda kasallik bilan kurashishda ichki psixologik zahiralarni ishga solishiga yordamchi kuch sifatida ko‘maklashishdan iboratdir.

## Iqtiboslar / References / Сноски

[1] Дэвид Гарднер, Долорес Шобек Базисная и клиническая эндокринология, 2010. С.694.

[2] Исмаилов С.И. “Эндокринологиядан маърузалар”, Т. 2008

[3] Потемкин В.В. Эндокринология, М.1998

[4] Е.В.Суркова -“ Клинические, психологические и психопатологические аспекты сахарного диабета-2006 г - 235стр; Уразбаева Д. А. ОНКОЛОГИК БЕМОРЛАРДА КАСАЛЛИКНИНГ ИЧКИ МАНЗАРАСИ //ILIM hám JÁMIYET. – Нукус, 2020. -№2. – Б.39-42.

[5] К.Б.Вовненко - "Особенности эмоционально-личностной сферы детей младшего школьного возраста с ограниченными возможностями здоровья: на примере сахарного диабета 1 типа"-2010 г – 172 стр

[6] Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti [JSST], 2020 yil

[7] Xalqaro diabet federatsiyasi [IDF], 2020

[8] IDF Diabetes Atlas, 2019

[9] https://t.me/Homiladorlik_Onalik_Ginekalogiya

[10] https://kun.uz/uz/news/2021/11/16/ozbekistonda-qandli-diabetga-chalinganlar-soni-malum-qilind

[11] https://kun.uz/uz/news/2022/02/28/oshib-borayotgan-qandli-diabet-uni-davolash-va-profilaktika-qilish-rejalari

[12] https://med360.uz/kasalliklar/qandli-diabet/

[13] https://iz.ru/1249113/mariia-frolova/opasnyi-sakhar-pochemu-u-millionov-rossiian-vyiavliaiut-diabet.

[14] https://daryo.uz/2021/02/24/qandli-diabetni-otkazib-yubormang-kimlarda-kasallanish-xavfi-yuqori/

ISSN 2181-9696

Doi Journal 10.26739/2181-9696

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

2 JILD, 2 SON

## ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

ТОМ 2, НОМЕР 2

## JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 2, ISSUE 2

**Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz**
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000